

**IMOM AL BUXORIY HADISLARIDA AYOLLAR BILAN BOG'LIQ
HADISLARINING FALSAFIY GERMENEVTIK TAHLILI***Ulfatillayeva Sayyora**O'ZMU falsafa va mantiq kafedراسي**Doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Imom al Buxoriy hadislarida ayollar bilan bog'liq hadislarining falsafiy germenevtik tahlili haqida so'z yuritilgan. Muqaddas dinimiz Islomda barchaga birdek xitob qilinib, erkak va ayollarga tenglik ila muomala qilingan. Haq-huquqlarda birini boshqasidan ustun qo'yilmagan. Shuningek, islom shariati umumiy shaklda aniq maqsadga erishishni ko'zlagan bo'lib, u "himoya" deb ataladi. Himoya esa turli jabhalarda, turli shakllarda namoyon bo'ladi. Xususan, ayollarning sha'ni, ularga taalluqli bo'lgan barcha narsa islom dini asosida himoya etiladi. Shu sababdan ham Qur'oni karim va sunnati nabaviyda ayollarga oid haq-huquqlar, nozik va daqiq ta'riflar alohida e'tibor bilan keltiriladi, adolat, latofat va mehr ila bayon qilinadi. Shularni e'tiborga olgan holda, ayolning qiz, rafiq va ona sifatida umr kechirishi va uning umr bosqichlarida ehtiromi va himoyasini ko'zda tutgan oyat va hadislarini etiboringizga havola etamiz.

Kalit so'zlar: Qur'oni karim, Imom al Buxoriy, hadis, ayollar, falsafiy germenevtik tahlili, muhaddis, islom.

Abstract. This article talks about the philosophical hermeneutic analysis of the hadiths related to women in the hadiths of Imam al-Bukhari. In our holy religion Islam, everyone is addressed equally and men and women are treated equally. One of the rights is not prioritized over the other. Also, Islamic Shari'a aims to achieve a specific goal in its general form, which is called "protection". Protection is manifested in different ways and in different forms. In particular, the honor of women and everything related to them is protected on the basis of Islam. For this reason, the rights and rights of women in the Qur'an and the Prophet's Sunnah are given with special attention and are explained with justice, kindness and love. Taking this into consideration, we bring to your attention the verses and hadiths that envisage the life of a woman as a daughter, wife and mother, and respect and protection of her at the stages of her life.

Key words: Quran, Imam al-Bukhari, hadith, women, philosophical hermeneutic analysis, muhaddis, Islam.

Абстракт. В данной статье речь идет о философско-герменевтическом анализе хадисов, связанных с женщинами, в хадисах имама аль-Бухари. В нашей священной религии Исламе ко всем относятся одинаково, и к мужчинам и женщинам относятся одинаково. Одно из прав не имеет приоритета над другим. Также исламский шариат направлен на достижение конкретной цели в его общей форме, которая называется «защита». Защита проявляется по-разному и в разных формах. В частности, честь женщин и все, что с ними связано, охраняется на основе ислама. По этой причине права

и права женщин в Коране и Сунне Пророка даны с особым вниманием и разъяснены со справедливостью, добротой и любовью. Принимая это во внимание, предлагаем вашему вниманию аяты и хадисы, предусматривающие жизнь женщины как дочери, жены и матери, уважение и защиту ее на этапах ее жизни.

Ключевые слова: Коран, имам аль-Бухари, хадисы, женщины, философско-герменевтический анализ, мухаддисы, ислам.

Imom Buxoriy buyuk muhaddis sifatida barcha musulmonlar tomonidan birdek ulug'lanadi. Shunday ekan, *Buxoriyning buyukligi sabablari nimada, u haqida dunyo olimlari qanday fikrda, umuman, dunyo olimlari al-Buxoriy haqida nimalar bilishadi va uning merosini qanday baholashadi* kabi savollarning tug'ilishi tabiiy. Tan olishimiz kerakki, biz buyuk allomalarimiz haqida juda kam bilamiz. Shu bois, Imom Buxoriy haqidagi dunyo olimlarining asarlari bilan tanishish foydadan xoli bo'lmaydi.

Ma'lumki, hadislar islomda Qur'oni karimdan keyingi o'rinda keluvchi muhim manba sanaladi. Ular ijtimoiy hayotning muqaddas kitobda ko'zda tutilmagan masalalariga echimlar taqdim etadi. Hadislar o'zida sunnani mujassamlashtiradi. Ya'ni, cunna hadislarida o'z aksini topgan va ular orqali keyingi avlodlarga etkazilgan.

Xalifalar davridan keyin hadis ilmi taraqqiy eta boshladi. Hadis ilmi nafaqat hadislarini yig'ish, balki ularning sahihlarini soxta va to'qimalaridan ajratish, tizimlashtirish, tasniflash va sharhlashga qaratilgan sayi-harakat natijalarini o'z ichiga oladi. Milodiy VIII asrdayoq hadislar soni haddan ziyod ko'payib ketgani bois sahih hadislarini alohida ajratib olish va tizimlashtirish zarurati yuzaga keladi.

Milodiy IX asr (hijriy III asr) hadis ilmining gullab-yashnagan davri bo'ldi. Sahih hadislarini soxta va to'qima hadislardan ajratib olishga to'liq muvaffaq bo'lindi. Oltita eng sahih hadislar to'plami – “Sihohi sitta” (“*Sihah Sittah*”) yaratildi. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (vafoti milodiy 870/hijriy 256 y.), Muslim ibn al-Hajjoj (vafoti milodiy 875/ hijriy 261 y.), Muhammad ibn Iso al-Termiziy (vafoti milodiy 892/hijriy 279 y.)larning “Jome' as-sahih”lari va Abu Dovud Sulaymon (vafoti milodiy 889/hijriy 275 y.), Ahmad ibn Shuayb al-Nasoiy (vafoti milodiy 915/hijriy 303 y.), Ibn Moja al-Qazviniy (vafoti milodiy 886/ hijriy 273 y.)larning “Sunan”lari mana shu davrda yaratildi.

Bular orasida dunyo bo'ylab eng ko'p tarqalgani Imom Buxoriyning sahih hadislar to'plamidir. Aksariyat manbalarda, Imom Buxoriy 600 mingta hadisdan 200 mingtasini yod bilgani, shundan 7275 tasini sahih sifatida taqdim etgani qayd etiladi.

Yana shuni ham e'tiborga olish kerakki, Imom Buxoriyning hayoti va faoliyatiga bevosita bag'ishlangan monografik asarlar nisbatan kam uchraydi. Chunki, buyuk alloma haqida asar yozishga jur'at etadigan qalam sohiblari barcha zamonlarda sanoqli bo'lgan. Ammo, islomshunoslikning turli mavzulari doirasida Imom Buxoriy va uning faoliyati haqida so'z yuritilgan bilvosita asarlar talaygina.

Bunday asarlarda alloma haqida to'liq ma'lumotlar berilmasa-da, ulug' muhaddis shaxsining u yoki bu qirralari turli mavzular ohangida bayon etiladi.

Imom Buxoriy ilmda xolis, insoniylikda esa juda hokisor bo'lgan. Muhaddis Xurosonda bir muddat yashagan paytlarida viloyat hukmdori Xolid al-Zuhali Buxoriydan uning xonadoniga kelib, o'zining farzandlariga "Sahih" va hadis ilmidan saboq berishini so'raydi. Buxoriy uning taklifini rad etadi. U Xolidga uning farzandlarini o'z talabalari orasida ko'rishdan xursand bo'lishini, ammo uning uyiga alohida dars berish uchun bora olmasligini ma'lum qiladi.

Shu tariqa Buxoriyning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi betakroridir, uning hadislar to'plami esa favqulodda mukammallik kasb etadi. Bu esa uning hadislaridan keng foydalanishga turki beradi. Mana shu sabablarga ko'ra, Imom Buxoriy hadislarini butun islom dunyosida keng tarqaldi, uning o'zi buyuk muhaddis sifatida shuhrat qozondi.

Germenevtika - falsafiy fikrlashning shunday usuliki, unda uning markazini tushunish jarayoni tashkil qiladi. Faylasuflar qadim-qadim zamonlardan buyon mavjud narsalarni, sodir bo'layotgan voqealarning tub mag'zini chaqishni va tushunganlarni boshqalarga bayon etib berishni o'z burchlari deb bilganlar. Shunga ko'ra, har bir faylasufning tushunish muammosi bilan shug'ullanishi tabiiy holatdir. Lekin har qanday faylasuf ham germenevt hisoblanavermaydi. Ta'rif berishlaricha, faqat aynan tushunishni falsafaning birlamchi prinsipi deb hisoblaydigan faylasuflargina germenevtiklar hisoblanadi. Ular uchun odam tushunuvchan mavjudotdir. Odamga taalluqli bo'lgan boshqa hamma narsalar ikkilamchidir. Ular tushunishdan tashqari tushunish jarayonida ishtirok etadi, yoki ushbu jarayonning bir jihatini tashkil etadi. Germenevtik tahlil asosan lingvistikada amalga oshirilib, boshqa bir tildagi matni izohlash, uni boshqalarga sharhlash uchun xizmat qiladi. Diniy-falsafiy germenevtika esa, matnning diniy-falsafiy jihatlarini sharhlash, izohlash uchun qo'llaniladi.

Islom dini ayollarning sha'nini ko'tarib, ularning turmush tarzini go'zallashtirgan. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ayollarga o'z erlariga itoat qilishni, erkaklarga esa jufti halollariga mehribonlik qilishni buyurganlar. Qizlarni majburlab erga berish, ularning mollarini yeyishni man qilganlar. Chunki johiliyat davrida ayollar meros ololmas, agar biror kishiga qiz farzand ko'rganining xabari berilsa, g'azablanganidan yuzlari qorayib, bo'zarib ketar edi. Alloh taolo Qur'oni karimda ularning bu holatini bunday bayon qiladi:

بِهِ بُشِّرَ مَا سُوِّءَ مِنَ الْقَوْمِ مِنْ يَتَوَارَى * كَظِيمٍ وَهُوَ مُسَوِّدًا وَجْهَهُ ظَلٌّ بِالْأَنْثَى أَحَدَهُمْ بُشِّرَ وَإِذَا يَحْكُمُونَ مَا سَاءَ إِلَّا التُّرَابُ فِي يَدَيْهِ أَمْ هُونٍ عَلَى أَيْمِسِكُهُ

“Qaysi birlariga qiz (ko'rgani haqida) xushxabar berilsa, g'azabi kelib, yuzlari qorayib ketadi. U (qiz)ni kamsitgan holda, olib qolish yoki (tiriklay) tuproqqa qorish (to'g'risida o'y surib), o'ziga xushxabar berilgan narsaning «yomon»ligidan (oriyat qilib) odamlardan yashirinib oladi. Ogoh bo'lingizki, ularning bu hukmlari juda yomondir (“Nahl” surasi, 58-59 oyatlar).

Qur'oni karimda "Niso" (Ayollar) nomi bilan alohida sura nozil qilingan bo'lib, unda meros va ayollarga muomala qilish hukmlari bayon etilgani dinimizda ularning ehtirom qilinganini ko'rsatib beradi.

Alloh taolo "Niso" surasida bunday marhamat qiladi:

فَالصَّالِحَاتُ أَمْوَالَهُمْ مِنْ أَنْفُسِهِنَّ وَيَمَا بَعْضٍ عَلَى بَعْضِهِمْ اللَّهُ فَضَّلَ بِمَا نَسَاءً عَلَى قَوَّامُونَ الرِّجَالِ
الْمُضَاجِعِ فِي وَأَهْجُرُوهُنَّ فِعْظُوهُنَّ نُسُوزَهُنَّ تَخَافُونَ وَاللَّاتِي اللَّهُ حَفِظَ بِمَا لِلْغَيْبِ حَافِظَاتٌ قَاتَاتٌ
كَبِيرًا عَلِيًّا كَانَ اللَّهُ إِنَّ سَبِيلًا عَلَيْهِنَّ تَبَغُّوا فَلَا أَطْعَمَكُمْ فَإِنَّ وَأَضْرِبُوهُنَّ

"Erkaklar xotinlar ustidan (oila boshlig'i sifatida doimiy) qoim turuvchilardir. Sabab – Alloh ularning ayrimlari (erkaklar)ni ayrimlari (ayollar)dan (ba'zi xususiyatlarda) ortiq qilgani va (erkaklar o'z oilasiga) o'z mol-mulklaridan sarf qilib turishlaridir. (Ayollar ichida) solihalari – bu (Allohga va eriga) itoatli, g'oyibga Alloh saqlaganicha himoyatli (ya'ni, erlarining sirlari, mulklari va obro'larini saqlovchi)lardir. Xotinlarning itoatsizligidan qo'rqsangiz, avvalo ularga nasihat qilingiz, so'ngra (bu ta'sir qilmasa,) ularni o'rinlarda (aloqasiz) tark etingiz, so'ngra (bu ham kor qilmasa) ularni (majruh bo'lmagudek darajada) uringiz. Ammo sizlarga itoat qilsalar, ularga qarshi (boshqacha) yo'l axtarmangiz. Albatta, Alloh oliy va ulug' zotdir ("Niso" surasi, 34-oyat).

Alloh taolo ushbu oyati karimada soliha ayolning sifatlarini bayon qilib, ortidan itoatsizlik sodir etgan ayolga rahm-shavqat bilan, bosqichma-bosqich qilinishi kerak bo'lgan muomala uslubi haqida ta'lim bermoqda. Bu uslub – avval chiroyli pand-nasihat, so'ngra shunda ham itoat qilmasa, o'rinlarini alohida qilish, bu ham kor qilmasa, qattiqroq chora – ozor bermaydigan darajada ta'zir berishga izn berilishidir. Ushbu ta'lim mehribon va rahimli bo'lgan Alloh taolo tomonidan ayollarga bo'lgan izzat-ikrom namunasi desak, adashmagan bo'lamiz.

Ayollarga bo'lgan ikromning namunalaridan yana biri shuki, ushbu surada ayollar va erkaklar lafzlarining teng miqdorda keltirilganidir.

Islom erkaklarga o'z ayollari bilan go'zal muomalada bo'lishni va bunda ular uchun yaxshilik borligi quyidagicha bayon qiladi:

كَثِيرًا خَيْرًا فِيهِ اللَّهُ وَيَجْعَلُ شَيْنًا تَكَرَّهُوا أَنْ فَعَسَى كَرِهْتُمُوهُنَّ فَإِنَّ بِالْمَعْرُوفِ وَعَاشِرُوهُنَّ

"Ular bilan totuv turmush kechiringiz. Agar ularni yomon ko'rsalaringiz, (bilib qo'yingki,) balkim sizlar yomon ko'rgan narsada Alloh (sizlar uchun) ko'pgina yaxshilik paydo qilishi mumkin" ("Niso" surasi, 19 oyat).

Shuningdek, dinimizda ayollar ona sifatida ulug'lanadi. Islom farzandlarni onalariga chiroyli muomalada bo'lishga buyurib, bu orqali ayollarni ona sifatida ulug'laydi. Alloh taolo Qur'oni karimdagi boshqa o'rinlarga nisbatan ota-onaga yaxshilik qilish borasida kelgan oyatlarni juda ham chiroyli tarzda bayon qilgan. Jumladan, "Isro" surasining 23-oyatida:

"Rabbingiz, Uning O'zigagina ibodat qilishingizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi. (Ey inson!) Agar ularning biri yoki har ikkisi huzuringda keksalik yoshiga yetsalar, ularga «uff!..» dema va ularni jerkima! Ularga (doimo) yoqimli so'z ayt!", – deya amr qilingan.

Boshqa surada esa:

“Biz insonga ota-onasini (rozi qilishni) buyurdik. Onasi uni zaiflik ustiga zaiflik bilan (qornida) ko‘tarib yurdi. Uni (ko‘krakdan) ajratish (muddati) ikki yilda (bitar). (Biz insonga buyurdikki) «Sen Menga va ota-onangga shukr qilgin! Qaytishlik Mening huzurimgadir”, – deb buyuriladi (“Luqmon” surasi, 14-oyat).

Qur’oni karimdagi ota-onaga yaxshilik qilish borasida kelgan yana bir oyat quyidagicha marhamat qilinadi:

“Biz insonni ota-onasiga yaxshilik qilishga buyurdik. Onasi uni (qornida) qiynalib ko‘tarib yurgan va uni qiynalib tuqqandir. Unga homiladorlik va uni (sutdan) ajratish (muddati) o‘ttiz oydir. Bas, qachonki, u voyaga yetib, qirq yoshga to‘lganida: «Ey, Rabbim! Menga va ota-onamga in’om etgan ne’matingga shukr qilishga va O‘zing rozi bo‘ladigan solih amalni qilishga meni muvaffaq etgin va men uchun zurriyotimni isloh et! Albatta, men Senga (gunohlarimdan) tavba qildim va, albatta, men musulmonlardandirman», – deydi” (“Ahqof” surasi, 15-oyat).

Ushbu o‘rinda shuni ta’kidlash lozimki, Allohga osiy bo‘luvchi o‘rinlarda ularga itoat qilinmaydi. Bu haqda bunday marhamat qilinadi:

“Biz insonni ota-onasiga yaxshilik qilishga buyurdik. (Ammo) agar ular sen bilmagan narsalarni (soxta ma’budalarni) Menga sherik qilishingga zo‘rlasalar, u holda ularga itoat etmagin! (Barchangiz) Menga qaytursiz, bas, Men (o‘shanda) sizlarga qilib o‘tgan amallaringiz xabarini berurman”, – deb marhamat qilinadi (“Ankabut” surasi, 8-oyat).

Sunnati nabaviyyada ham onalarga yaxshilik qilishga doir ko‘plab buyruqlar kelgan bo‘lib, ba’zilarini e’tiboringizga havola etamiz.

“Bir kishi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlariga kelib: “Yo Rasululloh, eng chiroyli muomalanga kim haqli?” – deb so‘radi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Onang”, – dedilar. U kishi: “So‘ng kim?” – dedi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Onang”, – dedilar. U kishi yana: “So‘ng kim?” – dedi. Rasululloh alayhissalom: “Onang”, – dedilar. U kishi: “So‘ng kim?” – dedi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “So‘ng otang”, – dedilar” (Imom Buxoriy rivoyati).

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uch bora “Onang”, deb aytishlari Islomda onaning sha’ni naqadar ulug‘ va hurmat-ehtiroimga loyiq ekaniga dalolat qiladi. Islom shariatidan boshqa hech bir shariatda onaning qadri bunchalik baland qilib belgilanmagan.

Darhaqiqat, islomda ayollar rafiqa sifatida ulug‘lanadi. Bu borada Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning “Vidolashuv haji”da sahobiylarga qarata ayollar haqida aytgan vasiyatlarini keltirib o‘tishimiz juda ham o‘rinli bo‘ladi: **“Ayollar borasida Allohdan qo‘rqinglar. Chunki sizlar Allohning omonati ularni qo‘lga kiritdingiz va Allohning kalimasi bilan ularning farjlarini o‘zlarining halol qilib oldingiz”** (Buxoriy rivoyati).

Rasululloh alayhissalom boshqa bir hadisda: “Albatta, ayollar erkaklarning yarmi (sherigi, tug‘ishganlari)dir”, – deganlar (Imom Abu Dovud rivoyati).

Ushbu hadisi sharifga binoan, Islom shariati ayollarni har qanday holat va ishlarda erkaklarga sherik qilgan desak, to'g'ri bo'ladi. Zero, ayol farzandlarni tarbiyalash, borasidagi xizmati oilani mustahkamlash yo'lida ham erkaklarga hamroh ekanidan dalolatdir. Er-xotin o'zaro inoq bo'lgan oiladan sunnati nabaviy ko'rsatib bergan yo'lga muvofiq go'zal xonadon paydo bo'ladi. Bunday xonadonlar esa jamiyat binosini barpo qilishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ham ayol jamiyatning yarmi deyiladi. Balki, ayol yarmidan ham ko'proq ulushga ega. Zero, ayol bu – ona, rafiq, qiz va opa-singildir.

Qolaversa, islomda ayollar qiz sifatida ulug'lanadi. Nabiy alayhissalom Islomning mohiyatini bayon etib, qizlarning ulug' maqom sohibalari ekanini ta'kidlaganlar. Ularning huquqlarini bayon qilib, zimmalaridagi vojiblarni ko'rsatib berish ila johiliyat davrida urfga aylanib, tarqalib ketgan qabihlik – qizlarni tiriklayin ko'mish muammosini bartaraf qildilar.

Ko'pchiligimiz er va xotinlik eng muqaddas insoniy aloqalar ekanini yaxshi bilamiz. Ammo bu aloqalarni to'g'ri yo'lga qo'yishda Qur'oni Karim va hadisi shariflarga amal qilib ish tutishimiz lozim. Ayol kishi turmushga chiqqach, erining izmida bo'ladi, endi u ota-onasidan ko'ra ko'proq eriga itoat etishi lozim. Agar er to'g'ri yo'lida bo'lib, xotiniga nisbatan o'z zimmasidagi majburiyatlarni bajarsa, xotini unga itoatsizlik qilishi gunohdir. Ayol erining iznisiz, huda-behudaga uyidan chiqishi joiz emas. Ammo zaruriyat yuzasidan, ota-onasining ziyorati uchun, ayniqsa, bemor ota-onasiga zarur bo'lib qolganda chiqishiga shar'iy jihatdan hech qanday mone'lik yo'q. Er-xotinlik munosabatlarida shunday holatlar ham bo'ladi, erkak kishi ayolning ehtiyojlarini doim qondirib yuradi, lekin kuni kelib biror sabab bilan uning xohlagan narsasini olib bera olmasa, ayol darhol erining barcha yaxshiliklarini unutib: «Sendan nima ko'rdim», deydi. Bu ayol kishining nafaqat erini qadrlamasligi, balki noshukurlik qilib, erining barcha yaxshiliklaridan ko'z yumishidir. Bunday holatlarda ayolning o'ylamay-netmay aytgan bir og'iz gapi ham, uning do'zax ahllaridan bo'lib qolishi uchun yetarli sabab ekanligi quyidagi hadisi sharifdan anglashiladi. Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi: **Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: «Menga do'zax ko'rsatildi, qaragam, undagi odamlarning ko'pi inkor qiluvchi xotinlar ekan». Sahobalar: «Allohni inkor qilganmi?» – deb so'radilar. «Erning yaxshiligini inkor qilganlar, erning qadriga yetmaganlar. Agar bularning bittasiga bir umr yaxshilik qilsang-u, keyin sendan bir kichik yomonlik ko'rsa: «Sendan nima ko'rdim, hech yaxshilik ko'rmadim», – deb aytadir», – deb javob berdilar.**(Imom Buxoriy rivoyati)

Darhaqiqat, Alloh taolo erkak kishini uning jismoniy va ruhiy jihatlari bilan oila rahbari bo'lishga mos qilib yaratgan. Oila qurish va uning osoyishtaligini saqlash, bu yo'ldagi barcha sarf-xarajatlar erkak kishining zimmasidadir. Ibn Umar roziyallohu anhudan qilingan rivoyatda: **«Nabiy alayhissalom: «Barchalaringiz homiysiz va qo'l ostingizdagilarga mas'ulsiz. Imom homiydir va qo'l ostidagilarga mas'uldir. Erkak o'z ahliga homiydir. Va qo'l ostidagilarga mas'uldir», dedilar.**» (Imom Buxoriy va Muslim rivoyati).

Erining ruxsatisiz nafl ro'za tutmasligi va begona odamlarni uyiga kiritmasligi lozim. Bu haqda Abu Hurayra roziyallohu anhudan shunday rivoyat qilinadi: «**Nabiy sollallohu alayhi vasallam: «Ayol kishi uchun erining huzurida uning ruxsatisiz (nafl) ro'za tutishi va uning iznisiz uyiga begonalarni kiritishi halol emas», dedilar»** (Buxoriy rivoyati).

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ayol go'yo qalb gavhari. Ayol borki, olam munavvar. Ona – mehribonlik timsoli! Unga yaxshilik qilish esa dunyoda baxt, oxiratda saodatga erishish sabablaridandir. Shunday ekan, onamizning nurli yuzlariga tabassum ila boqib, mehribonlik va oilaviy mehr-muhabbat asosida hayot kechirish barchamizga nasib etsin!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Imom Buxoriy ta`rifi. –T.: CHo'lpon, 1996.-B.32
2. Uvatov U. Buyuk muhaddislar. –T.: «O'zbekistan Milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 1998. –B.62.